



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 2

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





ADABIYOTDA JANRLAR EVOLYUTSIYASI

Umida Usmonbekova

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti: Ingliz tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: M. Qurbonova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotda davrlar o'tishi bilan yanada boyib, rivojlanib kelgan janrlar haqida fikr bayon etiladi.

Abstarct: This article discusses the genres that have enriched and developed in literature over time.

Kalit so'zlar: Evolyutsiya, adabiyot, qadimgi davr, o'rta asrlar, yangi davr, eng yangi davr.

Keywords: Evolution, literature, ancient period, the middle ages, the early modern period, the modern era.

Kirish. Adabiyot insoniyatning madaniy hayotidagi eng muhim sohalardan biri hisoblanadi. Adabiy turlar va janrlar adabiyotning mazmuni va shaklini belgilovchi asosiy unsurlar sifatida so'z san'ati rivojida muhim ahamiyatga ega.

Adabiyot tahlili va Metodologiya. Janr (fransuzcha) – san'at turlarida tarixan shakllangan ichki bo'linish hamda mazkur bo'linishni ifodalovchi tushuncha.

Janrlar evolyutsiyasi-san'at va adabiyot turlarining tarixiy davrlar davomida shakl, mazmun va uslub jihatidan o'zgarib, boyib borish jarayonidir. Masalan, tarixiy rivojlanish: Qadimgi, o'rta asrlar, uyg'onish davrida janrlar o'rtasida aniq chegara bo'lmagan. Klassitsizm davri: XVII-XVIII asrlarda yuqori va quyi janrlar shakllandi. Zamonaviy davr: Yangi badiiy janrlar, ya'ni ilmiy, fantastika, detektiv va multimedia janrlari paydo bo'ldi. Bu jarayon san'at asarlarining mazmun-mohiyati va badiiy ifoda vositalarining zamon talablariga moslashishini anglatadi. Adabiy janr-adabiyot rivoji jarayonida yuzaga kelgan asarlarning tasvirlash yo'llari, badiiy vositalar ko'rinishlaridir.

Adabiyotda janr asarning qaysi adabiy turga taalluqliligi, hajmi va obrazlarining qurilish usuli bilan belgilanadi. Janrning 3 asosiy turi mavjud: Epik janr, lirik janr va dramatik janr. Mazkur janrlar asar mavzusiga ko'ra yanada maydaroq qismlarga ham bo'linadi.

Adabiyotda janrlar evolyutsiyasi:

Qadimgi davr: Epos-qahramonlik asarlari, doston, afsonalar. Epos(yunoncha)ning eng yirik janri epopeya, ya'ni rivoyatlar, qo'shiqlar majmui hisoblanadi. Homerning "Iliada" va "Odessiya", hindlarning "Mahobhorat" va "Ramayana", qirg'izlarning "Manas", ruslarning "Dobrinnya va Alyosha", o'zbeklarning "Alpomish" kabi dostonlarni misol tariqasida aytish mumkin.

O'rta asrlar: Masnaviy, qasida, ruboiy, diniy va axloqiy asarlar. Qasida(arabcha)- sharq mumtoz adabiyotidagi she'riy janrlardan biri. Qasida biror shaxsning madhiga bag'ishlangan. O'zbek mumtoz qasidalarining ilk





namunalari “Devoni lug‘otit turk” da uchraydi. XI-XII asrlarda uning mazmun va mavzu doirasi kengayib, falsafiy, axloqiy qasidalar ham yozilgan, masalan, Anvari, Xoqoniy. XV asrda Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy, Amiriylar ijodida qasida o‘zining yuqori bosqichiga ko‘tarilgan. Sharq adabiyotida Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”- Allohga yetishish bosqichlari, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi Ma‘naviy”- ilohiy ishq va axloqiy o‘gitlar to‘plami, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”, “Hayrat ul-abror “-Allohga oshiqlik bayon etilgan bo‘lsa, G‘arb adabiyotida, Dante Aligyeri- “Ilohiy komediya”-asosan o‘rta asr dunyoqarashini aks ettirgan diniy- falsafiy doston, Sebastian Brant “Nodonlar kemasi” va boshqalar.

Yangi davr: Roman, drama(tragediya, komediya), romantizm. Roman (fransuzcha)-nasriy asar janri. Roman janr sifatida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas, unga bir tomondan Uyg‘onish davrining novellachiligi, ikkinchi tomondan ko‘p asrlik xalq eposi asos bo‘ldi.³ Mashhur yangi asr romanlari Migel de Servantes “Don Kixot”, Daniel Defo “Robinson Kruzo”, Jonatan Svift “Gulliverning sayohatlari”. O‘zbek romanchiligi durdonasi bo‘lmish “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” esa Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan.

Eng yangi davr adabiyoti- XX asr boshidan hozirgi kungacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi. Ushbu davr adabiyotining asosiy xususiyatlari:

Shaxs ichki olami

Urush va fojea

Global muammolar.

Jahon adabiyotida, Jorj Oruel “1984”, Franz Kafka “Jarayon”, Haruki Murakami “Norvegiya o‘rmoni”, o‘zbek adabiyotida esa O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”, Erkin A‘zam “Piyoda”, Xurshid Do‘stmuhammad “Bozor” kabi asarlarni namuna sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, janr evolyutsiyasi adabiyotning hayot bilan birga rivojlanishi, jamiyat muammolarini chuqurroq anglashga bo‘lgan intilishning ifodasidir. Janrlarning doimiy ravishda yangilanib, rivojlanib borishi adabiyotning tirik va uzluksiz jarayon ekanini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar:

1.Nurullayeva Jazira. Adabiy turlar va janrlarning so‘z san‘atidagi o‘rni va ahamiyati.

2.O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. Birinchi jild.Toshkent, 2000.

3.Adabiyotshunoslik.To‘rayeva B, Ko‘chimov U. Toshkent, 2021.

